



OLIY TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOG XODIMLARIDA GENDER MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING XORIIJIY TAJRIBASI

*Oriental universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Bayjonov Furqat Baxramovich*

Annotasiya. Mazkur maqolada oliy ta'lismuassasalari pedagog xodimlarida gender madaniyatni shakllantirishning xorijiy tajribasi. Shu bilan birga, ta'lim tizimiga gender madaniyatni tatbiq etish va uni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi. O'qituvchilarining gender madaniyatini shakllantirish muammolarini ko'rib chiqish va shakllantirish bo'yicha chora tadbirlarni amalga oshirish dolzarbli haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: gender madaniyat, gender madaniyatini shakllantirish, gender tenglik, gender ta'limi, shaxs, stereotiplar.

Bugungi kunda ta'lim sifatini ko'rsatkichi sifatida ta'limda gender yondoshuvi elementlarini joriy etish tobora ommaviylashmoqda. Ta'limda gender tengligi ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlash hamda me'yor va tushunchalarni yetkazishda, shu jumladan gender tengligi to'g'risidagi sifatli bilim olishdan teng foydalanishni anglatadi.

Jamiyatda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan sifatli ta'lim bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda, o'quv dasturlarida, o'quv adabiyotida, ta'lim jarayonida, talaba va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarda gender tengsizlik masalalariga ta'sir qilish va hal qilishga qaratilgan. Bolonya jarayonining Ijtimoiy o'lchovida (Social Dimension) Yevropa oliy ta'limining (European Higher



Education Area) raqobatbardoshligi va jozibadorligini oshirish uchun muhim omil etib ta’limga mazkur sifat tavsifi berilgan.

Berlin kommyunikesida (2003-y.) milliy va Yevropa darajalarida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash hamda ijtimoiy va gender tengsizlikni qisqartirish maqsadida ta’lim raqobatbardoshligini oshirishni, bugungi kundagi ta’lim sifati ko‘rsatkichi hamda ta’limda gender yondoshuvi elementlarini joriy etish tobora ommaviylashmoqda. Ta’limda gender tengligi ijtimoiylashuv jarayonini ta’minlash hamda me’yor va tushunchalarni yetkazishda, shu jumladan gender tengligi to‘g‘risidagi sifatlari bilim olishdan teng foydalanishni anglatadi.

Jamiyatda gender tengligini ta’minlashga qaratilgan sifatlari ta’lim bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda, o‘quv dasturlarida, o‘quv adabiyotida, ta’lim jarayonida, talaba va o‘qituvchilar o‘rtasidagi munosabatlarda gender tengsizlik masalalariga ta’sir qilish va hal qilishga qaratilgan. Bolonya jarayonining Ijtimoiy o‘lchovida (Social Dimension) Yevropa oliy ta’limining (European Higher Education Area) raqobatbardoshligi va jozibadorligini oshirish uchun muhim omil etib ta’limga mazkur sifat tavsifi berilgan.

Genderga ta’sirchan amaliyotlarni hamda kamsitmaslik tamoyillarini qo‘llashni ta’minlovchi malakali kadrlarni tayyorlash ta’lim tizimiga genderga oid bilimlarni kiritish orqali amalga oshiriladi.

Professor M.Miroi Markaziy va Sharqiylar davlatlarining ko‘pchiligi kamsitishni taqiqlash hamda teng huquq va imkoniyalarga erishishga qaratilgan qonunlarni qabul qilganligiga e’tibor qaratgan. Ushbu qonunlarning aksariyati o‘xhash, pedagog kadrlar uchun gender tengligi bo‘yicha treninglar o‘tkazish bo‘yicha choralarini ko‘rish, davlat va shaxsiy hayotda, o‘quv rejalarini, ma’lumotlar va darsliklarda kamsitmaslik yondoshuvini targ‘ib qilishga va salbiy stereotiplardan voz kechishga qaratilgan me’yorlarni o‘z ichiga olgan.

Xalqaro tajribada hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalari talabalariga genderga oid bilim berishning ikki xil yondoshuvi qo‘llanilmoqda:



1. Gender izlanishlar bo‘yicha alohida ta’lim berish.
2. Genderga oid bilimlarni boshqa o‘quv darslari mazmuniga singdirish.

Birinchi yondoshuvga ko‘ra, gender muammolari maxsus o‘quv kurslar orqali yoritiladi, masalan, “Gender bo‘yicha tadqiqotlar”, “Feministik tadqiqotlar”, “Erkaklarga oid tadqiqotlar”, “Ayollarga oid tadqiqotlar”, keyinchalik ushbu kurslar mustaqil metodikasiga ega bo‘lgan mustaqil fan sifatida kiritiladi.

Ikkinci yondoshuvga ko‘ra, genderga oid muammolarni mavjud bo‘lgan, masalan, sotsiologiya, tarix, pedagogika, yurisprudensiya va boshqa fanlar ichiga kiritishni nazarda tutadi, bu holda gender tengsizligi bo‘yicha mavjud muammolarini aniqlash va tahlil qilish turli sohalar kesimida amalga oshirish imkoniyatiga paydo bo‘ladi.

Ushbu yondoshuvlar bir-birini to‘ldiruvchi va genderga oid bilimlarni rejallashtirgan holda muntazam ravishda oliv ta’lim tizimiga kiritishga imkon yaratadi. Tadqiqotimizda gender masalalarini xorij tajribasini ham tahlil qildik:

Belorusiya o‘z aholisining, ham erkaklar, ham xotin-qizlarning inson salohiyati rivojiga ko‘p sarmoya kirituvchi davlatlardandir. Mamlakatda boshlang‘ich va o‘rta ta’lim majburiy hisoblanadi, shu sababdan qizlarning deyarli 100 foizi məktəbga boradi. O‘g‘il bolalar bilan ham huddi shunday holat. Biroq oliv ta’lim darajasida katta gender uzulishlikni ko‘rish mumkin: universitetlarda ta’lim olayotgan qizlarning soni erkaklarnikidan ko‘p. Erkaklar tomonidan ko‘pincha kasbiy ta’lim tanlanayotganligini ko‘rishimiz mumkin. 2016–2017-o‘quv yilida kasb-hunar texnik bilim yurtlari o‘quvchilarining deyarli 68 foizini erkaklar tashkil etgan.

Talabalar ichida qiz bolalarning soni ko‘pligining sabablaridan biri shundaki, mehnat bozoridagi to‘siqlarga aynan xotin-qizlar uchrashi va ular ta’lim olish uchun ko‘proq kuch sarflashiga to‘g‘ri keladi. Ikkinchidan, erkaklar oliv ma’lumotni yuqori darajada obro‘li deb hisoblamasligidadir.



Universitetga kirishda qizlar, qoidaga ko‘ra, ijtimoiy himoya, umumiy ovqatlanish, ijtimoiy fanlar va pedagogika sohalarini tanlaydilar va ularning bu yerdagи ulushi 80 foizga yetadi.

Shunday bo‘lsa-da, ayollarning ta’limdagi o‘rnini yuqori ekanligiga qaramasdan, ular oldingidek unchalik qulay bo‘lmagan holatda ekanligini ko‘rish mumkin. “Oq yoqalilar” orasida ayollar soni ko‘pchilikni tashkil etsa-da, ular ichidan rahbarlik lavozimini qo‘lga kiritish imkoniyati erkaklarga nisbatan 2,5 baravar pastdir. Rahbar-xizmatchilar orasida erkaklar 41 foizni, ayollar esa 17 foizni tashkil qiladi.

Ijtimoiy me’yorlarni o‘zgartirish uchun oilada va ta’lim muassasalarida gender masalalari bo‘yicha darslarni olib borish, bo‘lajak jurnalistlar uchun gender tengligi muammolari bo‘yicha maxsus kurslarni tashkil etish va mediada ijobiy ayollar obrazini talqin etish va shu kabi choralarni ko‘rish orqali jamiyatda mavjud bo‘lgan gender stereotiplardan xalos bo‘lishga yordam beradi.

Gender siyosatining muvaffaqiyati muammolarni ko‘rsatib beruvchi ma’lumotlar mavjudligiga hamda gender siyosatini bo‘yicha amalgalashirilayotgan choralarni nazorat qilishga bog‘liqdir.

Professor-o‘qituvchilar tarkibiga kiruvchi lavozimlarga xotin-qizlarning tayinlanishida qonunchilikda to‘siqlar mavjud emas. Shu bilan birga, mazkur lavozimlarni to‘ldirish uchun tanlov o‘tkazishning amaldagi tartibida besh yoshgacha farzandi bor ayol va erkaklarni kamsituvchi me’yorlar kiritilgan, ular uchun tanlovdan tashqari tartib o‘rnatalgan. Erkaklar uchun bunday istisno nazarda tutilmagan bo‘lsa-da, unga ko‘ra, farzandlar ta’lim-tarbiyasi hamda parvarishi faqatgina ayol kishi vazifasi ekani to‘g‘risidagi an’anaviy qarashlarga asoslanib qoida shakllantirilgani namoyon bo‘lmoqda.

Mehnat kodeksida kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi modda gender tengligi nuqtayi nazaridan kamchilikdan xoli emasligi ko‘rinib turibdi, chunki unda barcha ayollar yuqori ijtimoiy va huquqiy himoya muhtoj bo‘lgan imkoniyati



cheklangan subyektlar sifatida qabul qilingan. Mazkur moddada homilador ayollarni nazarda tutish hamda mehnat qonunchiligidagi istisno, imtiyoz va cheklovlarini belgilashda gender farqlanishlarni inobatga olish maqsadiga muvofiqdir.

Mazkur holat S.N.Burovaning Minsk universitetlarida gender stereotiplarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot ishida o‘z tasdig‘ini topgan. Tadqiqot ishida quyidagi xulosalar keltirilgan:

Birinchisi – so‘rovda ishtirok etgan erkaklarning ko‘pchiligi gender tengligiga erishish mumkin deb hisoblaydi.

Ikkinchisi – aksincha, ikkala jins vakillari nimanidir o‘zgartirishga tayyor emasligini ko‘rsatmoqda: “O‘qituvchilarning bor yo‘g‘i 1/5 qismi mamlakatdagi barcha OTMlar dasturlariga gender tengligi bo‘yicha kurslarni kiritish kerak deb hisoblaydi (ayollar – 22,0%, erkaklar – 12,9%). O‘rganilgan universitetlarda gender ta’limini kiritishga qarshi chiquvchilarning aksariyatini erkaklar tashkil qilgan.

Daniyadagi barcha bolalar kunduzgi parvarish muassasalariga teng qabul qilinadi va ularga bunday muassasalarda 26 haftaligidan to ular mакtabga chiqishiga qadar joy ajratiladi. Kunduzgi parvarish muassasalariga bolalarni joylashtirgan ota-onalarga subsidiya ajratiladi. Kun davomida bolalar kafolatlangan parvarish ostida bo‘lishi go‘daklarning ota-onalariga, ham ayol, ham erkaklarga mehnat bozoriga chiqishga imkon yaratadi.

Daniyada uzoq muddatli oliy ta’lim olayotgan yigit va qizlarning ulushi yuqoridir. Daniyaning gender tengligi masalalari bo‘yicha vaziri yoshlar ta’lim sohasi va ish tanlashda qaysi jinsga mansubligiga qarab emas, o‘z qobiliyatlarini inobatga olgan holda kasb tanlashga e’tibor qaratish maqsadida o‘z veb-saytini ochgan.



Kasbga yo‘naltirish bo‘yicha maslahatchilarning o‘quv tayyorgarlik rejasiga ta’lim sohasini tanlashda va kasbiy o‘sish masalasida madaniy boyliklarning ta’siri va ahamiyati, shu jumladan gender omillari kiritilgan.

Hukumat tomonidan tabiiy va texnik fanlarda qizlar sonini oshirishga bag‘ishlangan 10 ta turli xil loyihalar moliyalashtirildi va buning natijasida ushbu sohadagi kompaniyalar bilan tuzilgan kelishuvlar orqali qizlar soni keskin ko‘tarilgan qayd etildi va ularning 78 foizi loyiha natijasida kasb tanlashga nisbatan ularning nuqtayi nazari o‘zgarganini bildirgan.

Daniyada bitiruvchilarni oliy ta’limga tayyorlash to‘rtta turli dasturlardan iboratdir. Bitiruvchilar orasida erkak va ayollarning mutanosibligi 44:56 tashkil qilgan.

Xotin-qizlar tomonidan qaysi ta’lim sohasini tanlashlari asosan o‘qituvchining ta’siriga bog‘liq ekanligi aniqlangan. Shu sababli tabiiy fanlar ta’limida bir maromda gender taqsimlanishiga erishish uchun tabiiy fanlarning asosiy kurslarini mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Koreya Respublikasi (Janubiy Koreya) oila va gender tengligi masalalari bo‘yicha vazirligi tomonidan mamlakatda gender tengligini mustahkamlash maqsadida besh yillikga mo‘ljallangan “Koreyaning milliy gender stragiysi” ishlab chiqilgan. U quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

- gender tengligi madaniyatini yaratish;
- mehnat faoliyati va shaxsiy hayot o‘rtasida muvozanatni saqlashga ko‘maklashish;
- ishga joylashishda gender muvozanatsizligi muammolarini hal qilish;
- davlat va xalqaro sohalarda ayollar ishtirokini ta’minlashdagi muammolarni hal qilish;
- zo‘ravonlikka barham berish va inson huquqlarini himoya qilish;
- sog‘lik va farovonlik holatlarini yaxshilash;
- gender tengligini ta’minlash uchun barqaror qonunchilik asoslarini yaratish.



Ulardan quyidagi ustuvor vazifalarni ajratib olish mumkin:

- mehnat bozorida ayollar ishtiroki darajasini oshirish;
- ayol va erkaklarning mehnat faoliyati va shaxsiy hayotida mutanosiblik bo‘yicha me’yorlarni ishlab chiqish hamda ularga rioxaya etilishini rahbatlanirish;
- ayollarni rahbarlik sohalarida qamrab olinishini kuchaytirishdan iboratdir.

Ispaniyaning milliy gender strategiyasi – bu hukumat tomonidan gender kamsitilishiga qarshi kurash masalalarida ustuvor chora-tadbirlar va vazifalarni belgilovchi va ayol va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlab beruvchi uch yilga mo‘ljallangan mexanizm bo‘lib, u quyidagi ustuvor vazifalarni hal etishga qaratilgan:

- mehnat bozori va iqtisodiyotda saqlanib qolayotgan tengsizlikni qisqartirish (jumladan, ish haqi to‘lanishidagi tengsizlikni);
- mehnat, oilaviy va shaxsiy xayotda muvozanatni topishda qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish;
- xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha turlariga barham berish;
- ayollarni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga keng jalg qilinishini yaxshilash;
- ta’lim berish orqali ayol va erkaklarning teng imkoniyatlarini rivojlantirish;
- davlat dasturlari va chora-tadbirlarida teng munosabat va imkoniyatlar tamoyilini kiritilishini ta’minalashdan iboratdir.

Yuqorida keltirilgan xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilish mumkinki, Oliy ta’lim muassasalari pedagog xodimlarining gender madaniyatini rivojlantirishda multimedya mahsulotlarini yaratish va O‘zbekistonda gender muammolarini o‘rganish, targ‘ib etish, monitoringini yuritish, gender tadqiqotlar elektron platformasini yaratish maqsadga muvofiqdir.



Foydalaniman adabiyotlar

- 1.B.Namazov, N.Egamberdiyeva, M.Mirsoliyeva. (2018) O‘qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv masalalari (80th ed.). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent.
2. Bayjonov, F. (2023). Technologies for the development of gender culture in cooperation with the family and educational institutions. Bulletin of Science and Practice, (4), 531-534. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/89/70>.
3. Bayjonov, F. B. (2021). Gender differences in the contemplation of teenagers. Theoretical & Applied Science, 98(06), 144-146.
<https://doi.org/10.15863/tas.2021.06.98.21>.
4. Bayjonov, F.B. (2021). Oilada o‘spirinlarda gender tengligi masalalar // Maktab va hayot jurnali 3-son. T., 2021. 46-49 b.